

Turob To‘la

Qo‘sishiqchi shoir va dramaturg Turob To‘la 1918 yili Qozog‘iston respublikasi Chimkent viloyatinish Turbat qishlog‘ida dehqon oilasida tug‘ildi. U bolalar uyida tarbiyalandi. 1938—1941 yillarda Toshkent pedagogkka institutining kechki bo‘limida tahsil oldi.

So‘ngra O‘zbekiston Davlat nashriyotida muharrir, «O‘zbekfilm» va O‘zbekiston Radiosida bo‘lim boshqaruvchisi, Respublika kinochilar uyushmasi kotibi, Madaniyat ishlari vazirligida bo‘lim rahbari, O‘zbekiston Yozuvchilari uyushmasi qoshidagi adabiyot targ‘iboti rayosatining rahbari, Hamza teatri direktori kabi bir qancha mas’ul ijodiy vazifalarda faollik ko‘rsatdi.

Turob To‘la she‘r yozishni 1934 yillardan boshladi. 1939 yilda uning birinchi she‘rlar to‘plami boshilgan. 1941—1945 yillardauning Ulug‘ Vatan urushi frontlarida jang qilayotgan askarlariga bag‘ishlangan she‘rlari xalqimizning vatanga bo‘lgan his-tuyg‘ularini ifodaladi.

Shoirning «Shodligim» (1941), «Tabassum» (1944) to‘plamlaridagi she‘rlari ham Ulug‘ Vatan urushi frontida kurashayotgan jangchilarga bag‘ishlanadi. Turob To‘la «Baxt tongotari» (1948), «Sen haqingda»,, «Qanot qoqing, qo‘sishqlarim», «Kamalak», «Nafosat», rus tilida nashr qilingan «Zveni moya pesnya» (1954) yumli to‘plamlari ko‘pgina she‘r va dostonlarni o‘z ichiga oladi.

U «Bolalar dostoni» (1950) nomli asarida yosh kitobxonlarga maktab va do‘stlik haqida hikoya qiladi. 1955 yilda Turob To‘la «Qanotlan qo‘sishqlarim» she‘rlar to‘plamini o‘quvchilariga taqdim etdi. Uning qo‘sishq uchuv yozilgan yoqimli, jarangdor she‘rlari zamonamiz kisgilarining yuragiga hamohangdir. U qo‘sishiqchi shoir sifatida ham o‘z eliga, yurtiga mashhur bo‘lgan.

Bir qancha kinopovestlar, jumladan, «Rais», «Marg’ilonlik qiz», «Talant», «Mafningman», «Furqat», «Shashmaqom», «To‘qqizinch asr monologi», «Qahr» filmlari ssenariysi Turob To‘la qalamiga mansubdir. Hayotining so‘nggi yillarida Turob To‘laning «Qirq qiz», «Qizbulloq», «Momo yer» (Ch. Aytmatov asari asosida), «Nodirabegim», «Qahr» p’esalari qo‘yildi.

Shuningdek, u «Zulmatdan nur» (Oybekning «Qutlug‘ qon» romani asosida) operasini hamda «Samarqand afsonasi baletining librettolarini yozgan, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan san’at arbobi, O‘zbekiston xalq yozuvchisi Turob To‘la o‘z she‘rlari, qo‘sishqlari, muzikal dramalari va kinopovestlari bilan o‘zbek kitobxonlari va tomoshabinlari qalbidan joy olgan.

Shoir Turob To‘la 1990 yilda olamdan o‘tdi.